



## O'ZBEK XALQ MUSIQA IJODI TARIXI

Nuriddinova Odina

Namangan davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbek xalq musiqa madaniyatining rivojlanishi hamda ko'p yillik tarixga ega bo'lgan ustoz-shogird an'alarining tarkib topishi va ularni avloddan-avlodga yetkazib berish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbek xalq musiqasi, qadryat, an'ana, og'zaki ijod, ustoz-shogird an'anasi, folklor, madaniyat.

## ИСТОРИЯ УЗБЕКСКОЙ НАРОДНОЙ МУЗЫКИ

**Нуридинова Одина**

*Студент Наманганского государственного университета*

**Аннотация:** В статье рассматривается развитие узбекской народной музыкальной культуры и формирование многолетних традиций мастера-ученика и их передача из поколения в поколение.

**Ключевые слова:** узбекская народная музыка, значение, традиция, устное творчество, традиция учитель-ученик, фольклор, культура.

## HISTORY OF UZBEK FOLK MUSIC

Nuriddinova Odina

*Student of Namangan State University*

**Abstract:** The article discusses the development of Uzbek folk music culture and the composition of the long-standing tradition of master-disciple and their transmission from generation to generation.

**Key words:** Uzbek folk music, value, tradition, oral creativity, teacher-disciple tradition, folklore, culture

O'zbek xalq musiqa ijodining vujudga kelishi, ko'p yillik tarixga borib taqaladi bundan, ko'rinish turibdiki, sozanda va xonandalar ajdodining faoliyatida qaror topgan bo'lib, xalq hamda og'zaki an'anadagi ustozoda musiqa san'ati bu haqida guvohlik beradi.

Ma'lumki, O'zbek xalq musiqa ijodi o'z ichiga: "Folklor qo'shiqlari, milliy kuy-qo'shiqlar, aytimlarni qamrab oladi. Bundan ko'rinishdiki, musiqa ijodining serqatlamligidan dalolat beradi. O'zbek xalq ajdodlarining musiqa sarchashmalari Markaziy Osiyo hududida yashagan qardosh xalqlar ijodi bilan mustahkam bog'langan. Bu musiqa asarlari X – XI – asrgacha (ya'ni, xalqlar faol chegaralanganlaricha) o'zida bir butunlikni ifoda etadi, keyinchalik, u o'zbek va tojik musiqa madaniyatlarining shakllanishi uchun umumiylasos



bo'lib xizmat qiladi. Markaziy Osiyo xalqlari hayotida tarixiy chegaralanish bosqichi taxminan bizning eramizgacha bo'lgan 1- mingyillikdan boshlanadi.

Musiqa madaniyati tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo'llari shuningdek, folklor-havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko'rinishlari bir-birini to'ldirib keladi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunda ham ma'naviy madaniyatimizning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma'naviy qadryatlarimizga, tarixan qadrli an'analarimizga bo'lgan e'tibor, ularni yangidan isloh etish jarayoni ustuvor yo'naliш kasb etadi. Milliy qadryatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma'naviy boyligimizga bo'lgan e'tibor davlat miqyosida ko'tarildi. Ota-bobolarimizdan qolgan ma'naviy boyliklarni jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab-asrash, tiklash borasida, zamon bilan hamohang qadam tashlash uchun talaygina ishlar qilindi. O'zbek xalq ijodiyoti quyidagicha guruhlanadi:

1. Og'izdan-og'izga o'tib kelgan ijodiy jarayon;
2. Ustoz-shogird an'analarini orqali yetib kelgan jarayon;
3. Kasbiy ijodiy faoliyatgacha bo'lgan jarayon;

Ushbu ijodiy faoliyatlarni biz vazifalariga ko'ra, X – XI dan keyingi davrlarni qismlarga bo'lib, o'rganamiz.

1. Og'zaki – xalq og'zaki ijodiga – folklor, asarlarini hamda aytimlar, lapar, mehnat qo'shiqlari, chorvachilik qo'shiqlari, yallalarni o'z ichiga oladi.
2. Ustoz-shogird an'analarini orqali kuy qo'shiqlarni bizgacha bo'lgan davr oralig'ida bu an'ana saqlanib qolishigacha bo'lgan jarayondir.
3. Og'zaki ijodidan, ustoz orqali shogirdlarga berilgan musiqiy bilimning kasb orqaliyuzaga kelishi, ya'ni, klassik hamda, qadimiy maqom qo'shiqlarini notaga tushirish jarayoni yuzaga keldi va ushbu jarayonni bastakorlar o'zlari uchun kasb deya e'tirof etdilar.

Xulosa qilib aytganda, o'sib-kelayotgan yosh avlodga xalq mumtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqa hamda xalq bastakorlik yo'llari. Shuningdek, folklorlik havaskorlik kabi janrlarni bir-biri bilan uyg'un holda yetkazib bera olish albatta, maqsadga muvofiqdir. Milliy qadryatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma'naviy boyligimizga bo'lgan e'tibor davlat miqyosiga ko'tarildi. Bizning vazifamiz shundan iboratki, zamon bilan uyg'unlashgan holda qadam tashlash, yoshlarga to'g'ri va kerakli hamda ma'rifiy, ma'naviy boyliklarimizni, musiqiy madaniyatlarimizni avaylab to'la-to'kis holda yetkazib berish eng asosiy vazifamizdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.X. Madrimov. O'zbek musiqa tarixi. Toshkent – 2018-y.
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. H. Nurmatov, N. Yo'dosheva. O'zbek xalq musiqa ijodi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2007-yil
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)